



Qalbaki diplom sudga yetakladi

5-betda o'qing



50 yoshdan pensiyaga chiqish mumkinmi?

6-betda o'qing

INSON va qonun

2024-YIL
23-YANVAR
SESHANBA

№ 03
(1415)

www.hudud24.uz

@adolat_nashrlari



"ADOLAT" milliy
huquqiy axborot
markazi nashrlariga
obuna bo'ling!



"Adolat
nashrlari"
telegram
kanalida
kuzating!

www.adolatmarkazi.uz [telegram.me/hudud24official/](https://t.me/hudud24official) facebook.com/hudud24official/

Joriy yilning 18-yanvarida Prezidentimiz raisligida eksport, investitsiya va mahalliy sanoatda 2024-yilda turgan vazifalar bo'yicha o'tkazilgan yig'ilishda adliya vaziriga berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida Adliya vazirligida tadbirkorlar bilan ochiq muloqot bo'lib o'tdi.

TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA SOLISH SOHASIDAGI MUAMMOLAR MUHOKAMA QILINDI

Muloqot davomida standartlashtirish hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasida yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash va ularni huquqiy jihatdan bartaraf qilish masalalari muhokama qilindi.

Ochiq muloqotda 60 nafardan ortiq tadbirkorlar hamda ushbu sohaga mas'ul bo'lgan tashkilot vakillarining o'z faoliyati davomida duch kelayotgan turli xil muammolari va byurokratik to'siqlar yuzasidan fikrlari va takliflari tinglandi.

Jumladan, tadbirkorlar tovarlarni eksport va import qilishda hamda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni standartlashtirishda, sifat menejmenti tizimi bo'yicha xalqaro standartlarni qo'llash, xorijiy sertifikatlarni tan olish, xalqaro standartlarni joriy qilish masalalari muhokama qilinib, ularning yechimi yuzasidan 50 ga yaqin takliflar bildirildi.

Tadbir yakunida adliya vaziri A. Toshqulov tomonidan bildirilgan fikr va takliflar o'rganib chiqilib, ulardan sohani takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilayotgan normativ-huquqiy hujjat loyihasida inobatga olinishi ta'kidlandi.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI

"HECH BIR SHAXS HUJJATSIZ QOLMAYDI" HUQUQIY AKSIYASI

HUQUQIY AKSIYA
DOIRASIDA QUYIDAGI
SHAXSLARGA YORDAM
BERILADI

01 TUG'ILISHI QAYD ETILMAGANLIGI
O'QIBATIDA SHAXSNI TASD-QUOVCHI
HUJJATLARGA EGA BO'LMAGAN
SHAXSLAR

02 KO'CHMAS MULKIYATINI
DAVLAT RO'YXATIDAN OTKAZISHDA
QIYINCHILIKLARGA DUCH
KELAYOTGAN SHAXSLAR

03 TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI DAVLAT
RO'YXATIDAN OTKAZISHDA YOKI
QAYTA RO'YXATIDAN OTKAZISHDA
MUAMMOLARGA DUCH KELAYOTGAN
SHAXSLAR


04 TUG'ILGANLIGI YOKI YAQIN QARINDOSHNING
O'LIMI HAQIDAGI TIBBIY MA'LUMOTNOMAGA
EGA BO'LMAGANLIGI SABABLI YUQUQIY FAKTNI
BELGILASH YUZASIDAN SHAXSLARGA MUHOJAT
QILISH LOZIM BO'LGAN SHAXSLAR

05 YAQIN QARINDOSHNING O'LIMI
QAYD ETILMAGAN SHAXSLAR

MUROJAATLAR

1148

ADLIYA ORGANLARI
TOMONIDAN QABUL
QILINADI



@huquqiyaxborot

Huquqiy aksiya doirasida:

- tegishli hujjatlarga ega bo'lmagan shaxslar respublika miqyosida xatlovdan o'tkaziladi;
- fuqarolarning ushbu turdagi murojaatlari joylarda tashkil etilgan maxsus shtablar yoki 1148 "ishonch telefoni" orqali tezkorlik bilan qabul qilinadi;
- sayyor qabullar tashkil etiladi.

Kelib tushgan barcha murojaatlar o'rganib chiqilib, muammolarni qonuniy hal etishga ko'maklashiladi.

Aksiya 2024-yilning 20-yanvaridan 20-martga qadar davom etadi.

2 YANGI DARSLIK

Darslik yozishga hamma ham jazm qilavermaydi. Darslik yozishning katta yuki va mas'uliyati bor. O'quv metodik ishlar ichida eng mushkuli, mas'uliyatli va nufuzlisi darslik sanaladi. Ayniqsa, qisqa muddatda davlat standartlari talabi darajasida darslik tayyorlash muallifdan katta mas'uliyat va iqtidor talab qilishi shubhasiz. Yuridik fanlar doktori, professor Ozod Husanovning "Konstitutsiyaviy huquq" darsligi qayta to'ldirilib, yangilangan Konstitutsiya asosida yangicha ko'rinishga keldi.

Muallif butun umrini Konstitutsiyani o'qitish va tadqiq qilishga bag'ishlab kelayotgan yetuk mutaxassis bo'lgani bois, ushbu mas'uliyatni o'z zimmasiga oldi. Ta'bir joiz bo'lsa, u bu kitob ustida yoshlarga xos g'ayrat bilan ishladi. Rohat va farog'atidan ma'lum ma'noda voz kechib, o'zini ilmiy ijod sohasida qayta sinovdan o'tkazdi. Shu mas'uliyatli ishga katta ishtiyoq bilan qo'l urdi. Natija ham shunga yarasha bo'ldi. Ushbu darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar bo'yicha eng yaxshi o'quv adabiyotlarini aniqlash yuzasidan o'tkazilgan respublika tanlovida g'olib deb topilib, nashrga tavsiya etildi.

Darslik muhim ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar bilan boyitilib, o'quvchilarga tushunarli tilda bayon qilingan. Muallif mazkur darslikda Konstitutsiya tuzilishi asosida belgilangan bo'limlar, boblar va tegishli normalarni mantiqiy izchillik hamda mazmun bo'yicha ketma-ketlik asosida yangidan tartibga keltirgan. Muallif darslikka

"Konstitutsionalizm" tushunchasini kiritib, uni atroflicha yoritgani e'tiborga molik ish bo'lganini alohida ta'kidlash lozim.

2003-yil 8-maydagi "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident farmonining 20-bandida Konstitutsiyani o'rganish bo'yicha o'quv rejalari va ta'lim dasturlarini qayta ko'rib chiqish va ularni yangi tahrirdagi Konstitutsiya norma va qoidalariga moslashtirish yoxud o'quvchilarga, yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyani o'rganish bo'yicha zamonaviy metodika asosida darsliklar, o'quv qo'llanmalari va maxsus adabiyotlarni yaratish vazifasi qo'yilgan edi. Mazkur vazifaning Konstitutsiya normalarini real hayotda amalga oshirishda ustuvor chora-tadbir sifatida belgilanishi bejiz emas. Sababi, mamlakatimizda konstitutsiyaviylikni ta'minlash, ayniqsa, yoshlarga va barcha fuqarolarimizga Asosiy qonunimizning mazmun-mohiyatini to'g'ri o'rgatishga bog'liq.

MOHIYAT VA AHAMIYAT

Mazkur darslik oliy o'quv yurti yurisprudensiya yo'nalishining bakalavr bosqichi o'quv moduli asosida tayyorlangan. Biroq u mohiyatan Konstitutsiyani o'rganishga qiziqqan barcha uchun birdek foydalidir. Ayniqsa, kitobda mavzular Konstitutsiyaviy huquqning umume'tirof etilgan nazariy jihatlar bilan birga yangilangan Konstitutsiya normalari asosida yoritilgani diqqatga sazovordir.

Darslikda Konstitutsiyaning yangilanish sabablari, uning loyihasini tayyorlash va loyiha muhokamasida xalqning ishtiroki masalalari yoritilgani kitobni mohiyatan to'ldirgan. Kitobdagi mavzular Konstitutsiya tuzilishiga mantiqan mos keladi. Ayrim mavzularni yoritishda esa Asosiy qonunimizdagi an'anaviy tuzilmadan ijodiy yondashuv asosida ijobiy ma'noda chetga chiqilgan. Ya'ni, "Saylov tizimi" darslikning davlat hokimiyatini tashkil etish bo'limining oxirida emas, boshida berilgani, mavzu ishonchli dalillar bilan yoritilgani ham to'g'ri bo'lgan. Eng muhimi, mazkur metodik yondashuv o'quvchilar tomonidan xalq hokimiyatchiligi mohiyatining konstitutsiyaviy asoslarini o'zlashtirishda qulaylik tug'diradi.

Shu o'rinda, darslikda ilgari qator darsliklarda chalkashtirib yuborilgan "Konstitutsiyaviy prinsiplar" va "Konstitutsiya prinsiplari" tushunchalarining mohiyati aniqlashtirib berilgan. Ularning ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan yetarli darajada ochib berilgan. Yangilangan Konstitutsiyaning 1-moddasi oldingi tahrirdagi Konstitutsiyaga nisbatan ancha boyitilib, unga "boshqaruvning respublika shakli", "demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat" kabi tushunchalar kiritildi. Kitobda mazkur tushunchalar to'g'risida ham ma'lumot berilib, ularning mohiyati ochib berilgan. Aslida yangilangan Konstitutsiyada ushbu konstitutsiyaviy norma muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shu norma asosiy qonunning mazmun va maqsadini anglatadi. Qolgan normalar uning amalga oshishiga xizmat qiladi.

Muhimi, darslikda Konstitutsiyaga kiritilgan yangiliklardan birortasi chetda qolmagan. Darhaqiqat, Konstitutsiyada qo'llanilgan "Fuqarolik jamiyati institutlari" hamda "Advokatura" tizimiga bag'ishlangan yangi boblar kiritilib, ularga doir yetarli ma'lumotlar berilgani ham darslikning qimmatini oshirgan. Darslikda Asosiy qonunimizda "fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari" bilan bog'liq konstitutsiyaviy norma yoxud tuzilmaning maqomi ham yanada kuchaytirilib, aniqlashtirilgani o'quvchi uchun muallif tomonidan batafsil yoritilgani diqqatga sazovor ish bo'lgan.



KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ ASOSLARI

MAS'ULIYAT VA IQTIDOR

NATIJA VA XULOSA

Professor Ozod Husanov Konstitutsiyaviy huquq sohasida shakllangan yetuk olim sifatida mamlakatimizdagi har bir shaxs tomonidan Asosiy qonunimiz normalarining nazariy jihatdan tushunilib, idrok etilishi hamda undan real hayotda foydalanishda muayyan amaliy ko'nikmaga ega bo'lishi muhim zarurat ekanligi g'oyasiga ishonadi va amal qildi. Natijada muallif tomonidan davlatimizning yangilangan Konstitutsiyasini o'rganishga bag'ishlangan asosiy va dastlabki manba yaratilishiga muvaffaq bo'lindi.

Darhaqiqat, olim Prezidentimizning Konstitutsiyani hayotga tatbiq etish bo'yicha imzolagan farmonida olimlar va mutaxassislar oldiga qo'ygan vazifani zahmatli ilmiy, ijodiy va ruhiy jarayon

natijasida qisqa muddatda, o'z vaqtida va sifatli amalga oshirishni uddaladi. Farmonning ijrosi Yangi O'zbekistonda milliy konstitutsionalizmining rivoji kabi zarur jarayon bilan bevosita bog'liq. Shu nuqtayi nazardan, muallif mazkur yo'nalishda keyinchalik davr talabiga javob beradigan darajada tushunarli, ta'lim standartlari va tanlov asosida yaratilishi lozim bo'lgan yangi asr darsliklari avlodi uchun ilmiy va o'quv-metodik asos yarata olgan.

Mazkur darslik barcha soha vakillari, xususan, adolatli jamiyat barpo etilishini istaganlar, huquqning mazmun-mohiyatini va natijasini to'g'ri tushunib, idrok etadigan, tartib bilan yashashni xohlagan barchaning o'qib-o'rganishi uchun manfaatlidir. Chunki ushbu kitob oddiy darslik emas,

barcha yoshdagi o'quvchilar undan foydalanishi mumkin. Mutolaa jarayonida esa, kitobxon o'zining asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlarini tushunib boradi. Shuningdek, jamiyat va shaxsning o'zaro munosabatini yaxshi anglaydi, fuqaro sifatida davlatning ma'muriy-hududiy tuzilishi hamda davlat hokimiyati tashkil etilishidan yetarli darajada xabardor bo'ladi. Huquqiy ongi va huquqiy madaniyati yuksaladi, huquqiy faol shaxs bo'lib shakllanadi.

Fikrdan fikr tug'iladi. Kelajakda, yosh avlod vakillarining, fuqarolarning yosh xususiyati hamda xizmat faoliyatini e'tiborga olgan holda, yangilangan Konstitutsiyani o'rgatishga bag'ishlangan yangi metodik ishlarining nashr etilishiga umid bildirib qolamiz.

Halimboy BOBOYEV,

O'zbekiston Fan arbobi, Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori,

Eshmuhammad QODIROV,

Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori

Jahon adabiyoti tajribasidan ma'lumki, o'tkir qalam sohiblari fuqarolar va boshqaruv tuzilmalari o'rtasidagi ziddiyatlar tasviri, siyosatchilarning boshqaruv uslublaridagi xato va kamchiliklarini o'z asarlarida ko'p qatlamli tasvir orqali, ba'zida esa ochiqdan-ochiq, boshqaruv tizimiga protest ravishda bayon etishgan.



MALAKALI YURISTLARNI TAYYORLASHNING SIRI NIMADA?

Hozirgi kunda esa o'zbek adabiyotida ham siyosiy tuzumga protest ravishda yozilgan asarlarning soni oshganligi quvonarli holdir. Sababi, bunday asarlar jamiyatdagi ijtimoiy illatlarni yoritishning, jamiyatning madaniy va milliy taraqqiyotini belgilashda va har tomonlama rivojlangan demokratik jamiyatni bunyod etishda muhim ahamiyat kasb etishi bilan dolzarbdur. Mamlakatimizda inson huquqi, erkinligi va qonuniy manfaatlarini muhim qadriyat darajasiga ko'tarilgan yangi O'zbekiston davlatini qurish borasida jiddiy tashabbuskorlik amalga oshirilmoqdaki, biz yurist kadrlarni tayyorlovchi murabbiylar bu borada har tomonlama peshqadam bo'lishimiz zarurdir.

"Adabiyot atomdan kuchli..."

Yozuvchi Abdulla Qahhor "Adabiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchini o'tin yorishga sarf qilish kerak emas" deganida naqadar haq edi. Shu o'rinda badiiy asarlar va malakali yurist o'rtasidagi bog'liqlik nimada, degan savol tug'ilishi tabiiy. Keling, bu savolga javobni misollar va sharhlar orqali izohlaylik.

Sobiq Ittifoqda taqiqqa uchragan sho'ro mamlakatlarida o'rnatilgan sotsializm g'oyasining tanqidchisi sifatida SSSRda kitoblarni o'qish, tarqatish va sotish man etilgan yozuvchi yetuk intellekt sohibi Jorj Oruellni eslaylik. Uning "Molxona" va "1984" asarlari SSSRdagi sotsializm tuzumiga tanqid sifatida yozilgan asarlar sirasiga kiradi.

Jorj Oruellning asarlariga yarim asr davomida SSSRda qat'iy taqiq qo'yilgan. U kitoblari uchun ta'qib qilingan va ularni "qo'ldan qo'lga" o'tkazish, tarqatish uchun hatto vaqt berishgan. SSSR Jinoyat kodeksining dahshatli 58-moddasiga ko'ra, uning kitoblarni o'qiganlar "anti-sovet tashviqoti va targ'iboti"da ayblanib, birinchi marta yetti yil, agar yana takrorlansa, o'n yil qamoqqa tashlangan. Mana, adabiyotning kuchi, badiiy so'zning qudrati, qudratli imperiyani

cho'chitgan bemisl aql-zakovat!

Rossiyada o'tgan asrning oltmishinchi yillaridan boshlab adibning asarlari yashirincha o'qilgan bo'lsa, bizda deyarli mustaqillikdan keyingina shunday yozuvchi borligi ayon bo'ldi. Biz Dostoyevskiyning "Jinoyat va jazo" asari bilan cheklanmasdan, talabalarni Jorj Oruell yaratgan asarlar bilan chuqur tanishtirishimiz kerak. Adabiy munozara soatlari tashkil qilib "Farovon jamiyat aslida qanday bo'lishi kerak?", "Bu kimga yoki nimaga bog'liq?" degan savollarga javoblar topishga chorlashimiz zarur. Bugungi talaba kelajakda vazir, deputat, qonun chiqaruvchi idoralarda mansabdor shaxs, sudya, prokuror bo'ladi. Ular kelajakda qabul qiladigan qarorlar bizning ertangi kunimizni tinch va osoyishta hayotimizni belgilab beradi. Bunga befarq bo'lish, bepisandlik bilan qarash haqiqiy jinoyat va falokat, deb o'ylayman.

Talabalarga mavjud tuzumlarining avra-asarini titgan adabiyot durdonalaridan Odil Yolibovning "Adolat manzili", Shukur Xolmirzaevning "Qil ko'pri", Erkin A'zamning "Shovqin", Chingiz Aytmatovning "Asrga tatigulik kun", "Qiyomat", Abdulla Oripovning "Jannatga yo'l", "Ranjkom", Nazar Eshonqulning "Tobut", Murad Muhammad Do'stning "Lolazor", "Galatepaga qaytish" kabi ijtimoiy majozlarga asoslangan asarlarini tanishtirishimiz lozim.

Erkinlikka, mustaqillikka, individual sevgiga intilishi uchun, shaxs, avvalo, o'z rivojlanishining yuqori bosqichiga ko'tarila olishi lozim. Buning uchun ijtimoiy zarur shart-sharoit bo'lishi kerak. Ya'ni, davlat zo'ravonlik va ibtidoiy kuch ishlatishdan voz kechib, asosiy diqqat-e'tiborni ilmfan rivojiga, shaxs kamolotiga qaratishi zarur. Agar ana shunday mukammal tizim yaratilsa, uni na tashqi, na ichki kuchlar yemira oladi. Badiiy asarlarning ijtimoiy vazifalaridan biri ham mana shu g'oyani targ'ib etishdan iboratdir.

Siyosat va adabiyotni, uning o'ziga xos jihatlarni tushunmagan kitobxon bu asarlar zamiridagi yashirin va ulkan haqiqatlarni, insoniy drama va tragediyalarni, dahshatli fojialarni ilg'ay olishi biroz qiyin kechadi. Buning uchun yuristlar XX asrda dunyo xaritasida yuz bergan o'zgarishlarni, ulardan ko'zlangan maqsadni, sabab va oqibatlarini tahlil qila olish malakasiga ega bo'lishi zarur. Niqoblangan siyosatning asl qiyofasini ko'ra olish uchun teran tafakkur, siyosiy bilim, tarixdan puxta xabardorlik va yuqori darajadagi tahlil san'ati, bir so'z bilan aytganda, iqtidor lozim. Buni esa faqat malakali murabbiygina namuna bo'lib o'rgata oladi.


Xulosa qilib aytganda, jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlar, tarixiy shaxslar davlat boshqaruvida yo'l qo'ygan siyosiy xatoliklar va ularning jamiyat a'zolariga ta'sirini tahlil qilish va xulosa chiqarish yuristlarining kelajakdagi kasbiy faoliyati uchun zarur omildir.

Shaxlo QURBONOVA,

Toshkent davlat yuridik universiteti o'qituvchisi

MUNOSABAT

Korrupsiya – iqtisodiyot rivoji, chinakam qulay tadbirkorlik va investitsiya muhiti uchun eng asosiy to'siqlardan biridir. O'tgan yilning so'nggi kunlarida yuz bergan muhim voqealaridan biri – poytaxtimizda Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida yuksak xalqaro mukofotni topshirish marosimi bo'lib o'tdi. Unda ishtirok etgan davlatimiz rahbari bir qator tashabbuslarni ilgari surdi.



GLOBAL MUAMMONING YECHIMI

Tantanali tadbirda Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Korrupsiya illati hatto eng qudratli davlatlarni ham jar yoqasiga olib kelgan. Korrupsiyaga qarshi kurashish har bir sof vijdonli insonning, demokratik jamiyat va davlatning muqaddas burchidir".

O'z navbatida, milliy va xorijiy ekspertlar bunday salmoqli tadbirning O'zbekiston poytaxtida o'tkazilishi Prezidentimiz tashabbusi bilan bu borada amalga oshirilayotgan izchil islohotlar jahon hamjamiyati tomonidan yuksak e'tirof etilayotganidan dalolat ekanini qayd etishdi. Tadbirda yurtimizda so'nggi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ishlar tahlil qilindi va kelgusidagi vazifalar belgilandi. Demokratik islohotlar ortga qaytmastus olgan yangi O'zbekiston korrupsiyaga qarshi kurashish borasida ham katta reja va vazifalarni o'z oldiga qo'ygan alohida ta'kidlanib, qator tashabbuslar ilgari surildi. Xususan, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2030-yilgacha mo'ljallangan milliy strategiyani ishlab chiqib, hayotga tatbiq etish, korrupsiyaga qarshi kurashdagi mintaqaviy va global tashabbus va yangi loyihalarni qo'llab-quvvatlash, maxsus vakolatli Agentlikning xorijiy turdosh muassasalar bilan yaqin hamkorligini kuchaytirish orqali uning salohiyat va imkoniyatlarini yanada oshirish qayd etildi.

O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish haqida juda ko'p gapirilmogda. Aslida bu global muammoning yechimi o'zimizga bog'liq. Ayni paytda aniq bir kurashish usullari haqida ham yakdil fikrga kelish vaqti yetdi. Bunda eng asosiysi, xalqimizda korrupsiyaga qarshi kuchli immunitetni hosil qilishga erishish kerak. Aniqlik, nafaqat "korrupsioner", balki uning atrofini ham tozalash, ya'ni korrupsiyaga shart-sharoit yaratuvchi omillarni yo'qotish lozim.

Bu jarayonda esa Prezidentimiz qayd etganidek, ongli va qalbi bolalikdan "halollik vaksinasi" bilan emlangan yangi avlodni kamolga yetkazish ustuvor vazifa bo'lib qolaveradi. Bu illatga qarshi kurashish uchun birinchi navbatda halol ishlashni rag'batlantiruvchi ta'sir choralarini ko'rish talab etiladi. Bunda munosib maosh, korrupsiya haqida xabar bergan shaxslarni rag'batlantirish, halol insonlarni yuqori lavozimlarga tayinlash prinsipi tatbiq etilishi maqsadga muvofiq.

Korrupsiyaga sharoit yaratuvchi omillarni to'suvchi ta'sir vositalarini qo'llash zarur. Bunda davlat xizmatlarini ko'rsatishda inson omilini qisqartirish, huquqbuzarliklarni elektron qayd etish, lavozimga ochiq tanlov asosida tayinlash, davlat xizmatchilarining o'z daromadini deklaratsiya qilishi, davlat xaridlarining shaffofligini ta'minlash, qonunchilikda korrupsiogen normalarni bartaraf etish hamda sudlarning mustaqilligini ta'minlash muhim rol o'ynaydi.

Jamiyat rivojiga asosiy to'siq bo'luvchi korrupsiyaga barham berish, bu borada nafaqat davlat, balki fuqarolar tomonidan ham birgalikda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining yaratilishi mamlakat taraqqiyoti yo'lidagi muhim qadamlardan hisoblanadi.

Dildora BOZOROVA,

yuridik fanlar doktori, professor

QURILISH OBYEKTLARIDA YONG'IN XAVFSIZLIGI

Ayni paytda poytaxtimizning turli nuqtalarida yirik bunyodkorlik, qurilish-obodonchilik ishlari davom etmoqda. Bu yaxshi, albatta, Ammo qurilish jarayonida yong'in xavfsizligi qoidalarini talablariga qat'iy amal qilinishi shart.

Negaki, falokat kutilmaganda sodir bo'lishi mumkin. Qurilayotgan bino va inshootlarda insonlar xavfsizligini ta'minlash, evakuatsiya chora-tadbirlari avvaldan ishlab chiqilgani ma'qul.


Bundan tashqari, bilib qo'yish zarur bo'lgan ayrim me'yorlar ham bor. Xususan, binolarning tom qismiga chiqish uchun zina va tashqi yong'inga qarshi narvonlar o'rnatilishi, yerto'ladan to'g'ridan-to'g'ri tashqariga chiqish uchun zinapoyaning mavjud bo'lishi, suv ta'minotini qurilish me'yorlari va qoidalarini asosida loyihalashtirish asosiy qoidalar sirasiga kiradi.

Barpo etilayotgan bino-inshootlar atrofida yong'in o'chirish avtomobillarining tez va qulay yetib kelishi uchun sharoit yaratish talab etiladi. Bosh berik ko'chalarda esa kerakli ishlar (burilishlar) ni bajarish uchun 12x12 metr hajmda maydoncha qoldirish kerak. Qurilish ishlarini loyihalashda me'yoriy hujjatlarda ko'rsatib o'tilgan yong'inga qarshi me'yor hamda talablar inobatga olinasa, kelgusida noxush holatlar sodir bo'lishining oldi olingan bo'ladi.

Jasurbek EGAMNAZAROV,

Bosh vazir kotibiyati xo'jalik faoliyati boshqarmasi YXTTEB kichik inspektori

4 ADLIYA ODAMLAR ORASIDA



DO'KON BUZILGAN, kompensatsiya esa to'lab berilmagan



Fuqaro Sh. Ishpo'latov Nurafshon shahar "Oybek" mahallasi Toshkent yo'lidagi sobiq "Dehqon bozori" hududida joylashgan noturar bino, ya'ni do'kon buzilishi natijasida ko'rilgan zararni qoplashda amaliy yordam berishni so'rab, shahar adliya bo'limiga murojaat qilgan.

Murojaatni o'rganish davomida Prezidentning 2017-yil 3-noyabrdagi "Toshkent viloyati tarkibida viloyatga bo'ysunuvchi Yangiyo'l, Ohangaron va Nurafshon shahar hokimliklarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilangani, mulk egalari shahar hokimligiga yozgan murojaati va kelishuv bitimi asosida shahar hokimining 2018-yil 12-iyundagi qarori qabul qilangani ma'lum bo'ldi.

Qarorga asosan Sh. Ishpo'latovga buzilgan do'kon o'rniga shahar hokimligi tomonidan "Birlik" mahallasi hududidan "Savdo majmuasi" uchun ajratilgan 2,0 gektar yerning 50,0 kv metr qismiga savdo do'konini loyihalashtirishga va qurilishga ruxsat berilgani aniqlandi. Ammo ushbu qaror ijrosi ta'minlanmagan ma'lum bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasining "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunining 6-moddasida mulkdorga yetkazilgan zararining o'rnini uni yetkazgan shaxs tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq to'la hajmda qoplanishi kerakligi, qonunning 19-moddasida davlat organining mulkdorning mol-mulkini bevosita olib qo'yishga qaratilmagan qarori, shu jumladan mulkdorga qarashli uy, boshqa imoratlar, inshootlar yoki dov-daraxtlar joylashgan yer uchastkasini olib qo'yish to'g'risidagi qarori munosabati bilan mulk huquqining bekor qilinishiga faqatgina qonunlarda belgilangan hollarda va tartibda yo'l qo'yilib,


bunda mulkdorga olib qo'yilgan mol-mulkka teng mol-mulk berilishi va u ko'rgan boshqa zararlarining o'rnini qoplanishi yoki mulk huquqi bekor qilinishi tufayli yetkazilgan zararining o'rnini to'la hajmda qoplanishi belgilangan.

Yer kodeksining 37-moddasida jismoniy va yuridik shaxslarga tegishincha meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish, doimiy egalik qilish, doimiy foydalanish, muddatli (vaqtincha) foydalanish yoki ijara huquqi asosida tegishli bo'lgan yer uchastkalarini yoki ularning qismlarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish qonunda nazarda tutilgan tartibda amalga oshirilishi ko'rsatilgan.

Sh. Ishpo'latovga tegishli ko'chmas mulk obyektining bozor qiymati 2023-yil 12-iyulda baholovchi tashkilot "Mulkon price" MChJ tomonidan berilgan ekspert xulosasida 133 million 930 ming 339 so'm deb baholangan.

To'plangan hujjatlarga ko'ra, shahar adliya bo'limi tomonidan Sh. Ishpo'latovning manfaatida javobgar Nurafshon shahar hokimligidan 133 million 930 ming 339 so'm kompensatsiya undirib berish yuzasidan fuqarolik ishlari bo'yicha O'rta chiqarish tumanlararo sudiga da'vo arizasi kiritildi. Sud tomonidan da'vo ariza qanoatlantirilib, hal qiluv qarori qabul qilindi.

Sohibbek NURALIYEV,
Nurafshon shahar adliya bo'limi bosh maslahatchisi




Xatirchi tumanidagi "Zarbdor" mahallasida ishsiz yoshlar va ayollarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish hamda ularning bandligini ta'minlash asosiy e'tiborda. Murojaatlar yuzasidan o'rganishlar shuni ko'rsatdiki, mahalla mas'ullarining o'ziga huquqiy ko'mak kerak. Boisi Prezidentimizning 2021-yil 3-dekabrda qabul qilingan 31-sonli qarori ijrosi ta'minlanmagan, xodimlarga oylik ish haqi to'lanishida qonunbuzilishiga yo'l qo'yilgan.



Qarorning 8-bandida xonadonlar soni 500 tagacha bo'lgan mahallada – mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 6 baravari miqdorida, xonadonlar soni 501 tadan 1 mingtagacha bo'lgan mahallada – 6,5 baravari, xonadonlari 1 mingtadan ortiq bo'lgan mahallada – mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 7 baravari miqdorida ish haqlari to'lanishi belgilangan. Mazkur mahallada xonadonlar soni 502 ta bo'lishiga qaramay, mahalla xodimlariga yillar davomida 6 baravar miqdorida kam haq to'lanib kelingan.

"Zarbdor" mahallasidagi xotin-qizlar faoli Ra'no Mahfuzova hududdagi 1 ming 103 nafar xotin-qizlarning ma'naviy, psixologik va tibbiy yordam olishida mas'ul sifatida hududdagi mavjud uchta qishloqdagi o'nlab xonadonlarga har kuni yayov kirib chiqadi. Xodim mehnat munosabatlaridagi haq-huquqlari cheklanayotganini anglab, tuman adliya bo'limiga murojaat qildi. Adliya aralashuvi bilan R. Mahfuzovaga 2023-yilning 11 oyi mobaynida mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 6,5 baravari miqdorida ya'ni 4 million 300 so'm ish haqi undirib berildi. Xuddi shunday "Zarbdor" MFYda mahalla raisi, yoshlar yetakchisi va hokim yordamchilarining ham shu mazmundagi murojaatlari ijobiy hal etildi.

Abror SATTOROV,
Xatirchi tuman adliya bo'limi boshlig'i



Qiziriq tumanida 2015-yildan buyon qurilish sohasida faoliyat olib borayotgan "Sardor-Samandar" mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari, tadbirkor O. Jalilov tuman adliya bo'limiga murojaat qilib, tuman mudofaa bo'limi binosida joriy ta'mirlash ishlarini amalga oshirish yuzasidan Qiziriq tuman hokimligi bilan 581 million 389 ming 661 so'm qiymatga xizmat ko'rsatish shartnomasi tuzilgani, shartnomaga asosan "Ish bajaruvchi" MChJ tomonidan 2022-2023-yillar davomida tuman mudofaa bo'limi binosida 581 million 389 ming 661 so'mlik joriy ta'mirlash ishlari bajarilgan bo'lishiga qaramasdan, tuman hokimligi tomonidan to'lov amalga oshirilmaganidan kelayotganidan noroziligini bildirgan.

Tuman adliya bo'limi tomonidan tadbirkorning murojaatini o'rganish davomida "Buyurtmachi" – tuman hokimligi bilan "Ish bajaruvchi" MChJ o'rtasida bajarilgan ishlar 2022-yil dekabr oyida tuzilgan shartnoma hamda 2023-yil 1-yanvarda tuzilgan hisob-kitob solishtirma dalolatnomasi bilan o'z tasdig'ini topgan.

Yuqoridagilarga asosan tuman adliya bo'limi tomonidan javobgar – tuman hokimligidan tadbirkorning manfaatini ko'zlab, "Sardor Samandar" MChJ foydasiga 581 million 389 ming 661 so'm mavjud qarzdorlikni undirish yuzasidan Qumqo'rg'on tumanlararo iqtisodiy sudiga da'vo arizasi kiritildi.

Sudning hal qiluv qaroriga ko'ra, da'vo arizasi qanoatlantirilib, javobgardan da'vog'ar foydasiga qarzdorlikni undirish belgilandi.

Sheroziddin TILAVOV,
Surxondaryo viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi

ISH bajarilgan, QARZ to'lanmagan



E'TIBORSIZLIKMI YOKI...



QORAQALPOG'ISTON

SAFAR XARAJATLARI TO'LAB BERILDI



To'rtko'l tuman tibbiyot birlashmasida hamshira bo'lib ishlovchi U.E. va O.Sh.lar tuman adliya bo'limiga murojaat qilib, 2023-yil 20-fevraldan 2023-yil 4-aprel-gacha Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining malakasini oshirish Nukus filialida xizmat safarida bo'lganliklari, biroq shu kunga qadar xizmat safari uchun 7 million 443 ming 600 so'm pul to'lab be-

rilmayotgani sababli amaliy yordam berishni so'ragan.

Murojaat tuman adliya bo'limi tomonidan o'rganib chiqilib, haqiqatan ham ish beruvchi tomonidan Vazirlar Mahkamasi-ning 424-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 13-bandi talabi buzilganlik holati aniqlandi. Xodimlarga xizmat safari uchun to'lab berilmagan 7 million 443 ming 600 so'm xarajatni to'lab berish va aybdor xodimlarga tegishli chora ko'rish uchun taqdimnoma kiritildi.

Natijada ish beruvchi tomonidan hamshiralari U.E. va O.Sh.larga xizmat safari uchun tegishli bo'lgan pullar to'lab berilishi ta'minlandi.

Nasiba RADJAPOVA,

To'rtko'l tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti



NAMANGAN

QALBAKI DIPLOM
SUDGA YETAKLADI

Fuqaro N. Nishanov 2022-yil 17-fevralda Uchqor'g'on tuman xalq ta'limi bo'limiga "Meni 11-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabiga ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari lavozimiga ishga qabul qiling" degan mazmundagi ariza bilan murojaat qildi. To'plangan hujjatlar tuman xalq ta'limi bo'limi tomonidan tuman yuridik xizmat ko'rsatish markaziga tegishli tartibda huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun yuborildi.

Huquqiy ekspertiza jarayonida yuqorida ko'rsatib o'tilgan fuqaro ishga kirish uchun taqdim etgan xujjatlardan biri, ya'ni qayta tayyorlov kursidan olingan diplomning haqiqiylikiga shubha tug'ildi. Ushbu hujjat alohida o'rganilib, 2021-yil 30-iyun kuni berilgan diplom qalbakilashtirilgani ma'lum bo'ldi va bu holat bo'yicha tegishli tartibda tuman IIBga xabarnoma yuborildi.



Tergov organi tomonidan o'tkazilgan tergov harakatlari natijasi bo'yicha N. Nishanovning harakatlarida Jinoyat kodeksining 228-moddasida ko'rsatilgan alomatlar borligi aniqlandi. Unga tegishli jinoyat ishi 2023-yil 3-aprelda jinoyat ishlari bo'yicha Chortoq tuman sudida ko'rilib, sud tomonidan sudlanuvchi N. Nishanov aybli deb topilib, unga nisbatan qonuniy jazo berildi.

Baxtiyor ORZIQULOV,

Uchqor'g'on tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi boshlig'i



TOSHKENT

Yana snos...



O'tgan 2023-yilda Toshkent viloyat adliya boshqarmasi tomonidan 623 ta inson haq-huquqlariga doir murojaatlar ko'rib chiqildi. Fuqarolarning davlat organlari va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda buzilgan huquqlarini tiklash bo'yicha 30 ta taqdimnoma kiritildi. 25 ta noqonuniy hujjat ijrosi to'xtatilib, qonunga muvofiqashtirildi. Shuningdek, sudlarga 12 ta da'vo arizasi kiritilib, jami 1 milliard 872 million 782 ming so'm miqdorida zararni undirish yuzasi-

dan hal qiluv qarorlari qabul qilindi. Shu bilan birga, davlat tashkilotlari tomonidan fuqarolarning mehnat huquqlari buzilgani holati bo'yicha 8 ta ma'muriy taklif kiritilib, tashkilotlarga qonun hujjatlarini buzmaslik yuzasidan 20 ta ogohnoma chiqarildi.

Jumladan, Qibray tumanida yashovchi fuqaro B. Alibekovning tumandagi "Tovkenttepa" mahallasining Mang'it ko'chasidagi 3-uy tuman hokimligi tomonidan davlat va jamoat ehtiyoji uchun kompensatsiya pullari to'lanmay, buzdirib yuborilganidan norozi bo'lib yo'llagan murojaati viloyat adliya boshqarmasi tomonidan o'rganib chiqildi.

O'rganish natijalariga ko'ra, adliya boshqarmasi tomonidan fuqaro B. Alibekovning 250 million so'mga baholangan uy-joyi uchun kompensatsiya to'lovlarini undirish yuzasidan fuqarolik ishlari bo'yicha Chirchiq tumanlararo sudiga da'vo arizasi kiritildi va sud tomonidan da'vo qanoatlan-tirildi.

Nuriddin ISMAILOV,

Toshkent viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi



Mehnat kodeksining 272-moddasiga ko'ra, mehnatni normalashtirish muayyan ishlab chiqarish sharoitlarida aniq ishni yoki operatsiyani bajarish uchun eng ko'p yo'l qo'yiladigan vaqt miqdorini aniqlashdir. Shuningdek, mehnatni normalashtirish xodimlarning turli toifalari (guruhlari) soni va asbob-uskunalar soni o'rtasidagi maqbul o'zaro nisbatni aniqlash imkonini ham beradi. Shu orqali mehnat natijalari va mehnatga haq to'lash o'lchovi o'rtasidagi tenglashtirilgan o'zaro nisbatlar belgilanadi.

MEHNATNI
NORMALASHTIRISH
TARTIBINI BILASIZMI?

Mazkur kodeksning 273-moddasiga ko'ra, mehnat normalashtirish turlari quyidagilardan iborat:

- ✓ **vaqt normasi** – muayyan tashkilot uchun eng ma'qul bo'lgan tashkiliy-texnik sharoitlarda bir xodim yoki tegishli son va malakadagi xodimlar guruhi tomonidan muayyan ish birligini (bitta mahsulot, bitta operatsiya) bajarish uchun zarur bo'lgan ish vaqti miqdori. Qoida tariqasida, norma-soatda, kishi-soatda, kishi-daqiqada, soniyalarda hisoblab chiqiladi.
- ✓ **ishlab chiqarish normasi** – muayyan tashkiliy-texnik sharoitlarda vaqt birligida bir xodim yoki muayyan tashkiliy-texnik sharoitlarda tegishli son va malakadagi xodimlar guruhi tomonidan smena davomida bajarilishi kerak bo'lgan ish hajmi;
- ✓ **xodimlar soni normasi** – muayyan tashkiliy-texnik sharoitlarda ishlab chiqarish topshirig'ini bajarish uchun zarur bo'lgan muayyan kasbiy malakaga ega xodimlar soni;
- ✓ **xizmat ko'rsatish normasi** – smena davomida muayyan tashkiliy-texnik sharoitlarda bir xodim yoki tegishli son va malakadagi xodimlar guruhi tomonidan xizmatlar ko'rsatilishi kerak bo'lgan asbob-uskunalar, hududlarning maydonlari va xizmat ko'rsatish obyektlarining belgilangan birligi soni;
- ✓ **aloqida lavozimlarni kiritish normasi** – tegishli davlat boshqaruvi organi tomonidan tashkilotning alohida vazifalari va funksiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan, budjet tashkilotlari uchun belgilangan xodimlar soni;
- ✓ **boshqariluvchanlik normasi** – bevosita bitta rahbarga bo'ysunishi kerak bo'lgan xodimlar soni;
- ✓ **malaka normasi** – xodimning mehnat vazifasini bajarishi uchun zarur bo'lgan malaka (bilim, mahorat, ko'nikma) darajasi;
- ✓ **davlat kasbiy standartlari (kasbiy faoliyat standartlari)** – xodimga muayyan bir kasbiy faoliyat turini amalga oshirish, shu jumladan muayyan mehnat vazifasini bajarish uchun zarur bo'lgan malaka tavsiflari;
- ✓ zarur mehnat sarflarini belgilovchi boshqa normalar.

Mehnat normalari to'liq ish vaqti davomida tegishli malakaga ega bo'lgan xodim mehnat shartnomasida shart qilib ko'rsatilgan mehnat vazifasini to'liq bajarishga qodir bo'ladigan tarzda belgilanishi kerak.

Bir turdagi ishlar uchun Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan namunaviy (tarmoq, tarmoqlararo, kasbiy va boshqa) mehnat normalari tasdiqlanadi.

Yuqoridagi belgilangan mehnat normalariga asosan ish beruvchi va xodim o'rtasida mehnat munosabatlari tashkil etiladi.

Rustamxon ABULXAYROV,

Toshkent davlat yuridik universiteti o'qituvchisi

6 "MADAD" JAVOB BERADI



Savollarga "Madad" NNT bosh mutaxassisi

Abror EZO'XONOV
javob berdi



50 YOSH DAN PENSIYAGA CHIQISH MUMKINMI?

– Onam 1971-yilda tug'ilgan. Dam bilan 1989-yilda turmush qurishgan. Oilda 3 nafar farzandimiz. Kichik ukam 2000-yilda tug'ilgan. U bolalikdan II guruh nogironi. Onam 52 yoshda, ish staji 15 yil. Onamga pensiyaga chiqishda imtiyoz bormi?

– O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonuni 12-moddasida umumiy belgilangan yoshni 5 yilga qisqartirilgan holda imtiyozli pensiya olish huquqi belgilangan. Unga ko'ra, "bolalikdan nogironligi bo'lgan farzandlarning onalari ularni sakkiz yoshgacha tarbiyalagan bo'lsa – ish staji kamida 20 yil bo'lgan taqdirda. Basharti, ayol o'gay o'g'il va o'gay qizni ular 8 yoshga to'lguniga qadar kamida 5 yil tarbiyalagan bo'lsa, pensiya tayinlashda ular haqiqiy farzandlar bilan teng ravishda hisobga olinadi".

Qonunchiligi muddatigacha ushbu norma-ga asosan onangizning ish staji 20 yilga yetmaganligi uchun imtiyozli tarzda, ya'ni 5 yil muddatidan oldin pensiyaga chiqishiga yo'l qo'yilmaydi.

ISH HAQIDAN USHLAB QOLISH QONUNIYMI?

– Xodimga ortiqcha ish haqi to'langan. U xodimning rozilgisiz ushlab qolingan. Ish beruvchining shu harakati qonuniyimi?

– Mehnat kodeksining 269-moddasiga ko'ra, hisob-kitobdagi xatolar oqibatida ortiqcha to'langan summalarni xodimning yozma roziligidan qat'iy nazar, ish haqidani ushlab qolish mumkin. Bunday hollarda ish beruvchi to'lov noto'g'ri hisoblab chiqarilgan kundan e'tiboran bir oydan kechiktirmay ushlab qolish haqida buyruq chiqarishga haqli. Agar bu muddat o'tib ketgan bo'lsa yoki xodim bo'nakni to'lash uchun ushlab qolish asoslariga yoxud miqdoriga e'tiroz bildirayotgan bo'lsa, qarzni to'lash sud tartibida amalga oshiriladi.

Shunga asosan hisob-kitobdagi xatolar oqibatida ortiqcha to'langan summalarni xodimning yozma rozilgisiz 1 oy muddat ichida ish haqidani ushlab qolish mumkin.

TA'TIL PULI KECHIKTIRILSA...

– Mehnat ta'tiliga to'lanadigan pul kechiktirilganligi uchun xodimga kompensatsiya to'lanadimi?

– Mehnat kodeksining 333-moddasiga ko'ra, "Ish beruvchi ish haqini, ta'til to'lovlarini, mehnat shartnomasi bekor qilingandagi to'lovlarini va (yoki) xodimga to'lanishi lozim bo'lgan boshqa to'lovlarini to'lash muddatini buzgan taqdirda, ularni to'lov muddatidan keyingi kundan e'tiboran to'haqiqatda hisob-kitob qilingan kunni o'z ichiga olgan muddatgacha har bir kechiktiril-

gan kun uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining o'sha vaqtda amalda bo'lgan qayta moliyalashtirish stavkasidan kelib chiqqan holda foizlar (pullik kompensatsiya) bilan birga to'lashi shart. Xodimga to'lanishi lozim bo'lgan pullik kompensatsiya-ni miqdori O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki qayta moliyalash stavkasining o'n foizi miqdorida belgilanadi. Xodimga to'lanadigan pullik kompensatsiya-ni miqdori jamoa shartnomasi, ichki hujjat yoki mehnat shartnomasi bilan oshirilishi mumkin. Mazkur pullik kompensatsiyani to'lash majburiyati ish beruvchining oylik ish haqini yoki xodimga to'lanishi lozim bo'lgan boshqa to'lovlarni to'lashning kechiktirilishida aybi bor-yo'qligidan qat'iy nazar yuzaga keladi".

Shunga asosan mehnat ta'tiliga to'lanadigan pul kechiktirilganligi uchun kompensatsiya to'lanadi.

NOGIRONLARDAN DAVLAT BOJI UNDIRILMAYDI

– O'g'limning nogironligi bor. Uni davolatish uchun Moskvaga boshimizga to'g'ri kelyapti. Nogironligi bor shaxslarga xorijga chiqish uchun pasport olishda imtiyoz bormi?

– O'zbekiston Respublikasining "Davlat boji to'g'risida"gi qonuni 13-moddasiga ko'ra, voyaga yetmagan shaxsga, shuningdek unga hamrohlik qiluvchi shaxsga xorijiy davlatda ixtisoslashgan tibbiy yordam ko'rsatilganda yoki jarrohlik amaliyoti o'tkazilganda Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish sohasidagi hujjatlarni rasmiylashtirish hamda berishda davlat boji to'lashdan ozod etiladi.

Shunga asosan nafaqat nogironligi bo'lgan farzandingizga, balki unga hamrohlik qiluvchi shaxsga ham xorijga chiqishi uchun pasport olishda davlat boji undirilmaydi.

MULK SOLIG'I OLINADIMI?

– Mening nomimda 2 ta transport vositasi bor. Ikkiti mashinam borligi uchun mulk solig'i olinadimi?

– Amaldagi Soliq kodeksining 419-moddasida mol-mulk solig'ining soliq solish obyektiga nimalar kirishi ko'rsatilgan. Ular quyidagilardan iborat:

- ☑ uy-joylar, kvartiralar, dala hovli imoratlari;
- ☑ tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo'ljallangan yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk obyektlari;
- ☑ qurilish tugallanmagan yashash uchun mo'ljallanmagan obyektlar;
- ☑ ko'p kvartirali uylarga uzviy bog'liq bo'lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlari, binolar va inshootlar.

Yuqoridagilarga asosan sizning avtomobilingiz borligi uchun mol-mulk solig'i undirilmaydi.

MUDDAT

QANDAY BELGILANADI?

– Avtotransport vositasining oldi-soldi shartnomasi notarial tartibda tasdiqlangandan so'ng ushbu avtotransport vositasi 10 kun ichida egasining doimiy yashash joyidagi Yo'l harakati xavfsizligi davlat xizmatida ro'yxatdan o'tkazilishi va ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgisi olinishi lozim. 9-10-kunlar dam olish yoki bayram kunlariga to'g'ri kelib qolsa-chi, unda nima qilinadi?

– Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 31-avgustdagi 683-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Avtomototransport vositalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizomning 6-bandiga ko'ra, "Avtomototransport vositasining egasi yoki uning vakili avtomototransport vositasiga mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquqlar paydo bo'lishi, o'tishi, cheklanishi va tugatilishi kundan yoki transport vositasining huquqiy holati o'zgarishidan boshlab o'n kalendar kun ichida mazkur Nizomning 14 va 15-bandlariga muvofiq tegishli hududiy YHXX va uning hududiy boshqarmalariga texnik ko'rikdan o'tkazish uchun avtomototransport vositasini, uning texnik holatidan qat'iy nazar va mazkur Nizomda nazarda tutilgan hujjatlarni taqdim etgan holda murojaat qilishi zarur. Agar YHXX va uning hududiy boshqarmalariga murojaat qilish muddatining oxirgi kuni dam olish, bayram (ish kuni bo'lmagan) kunlarga to'g'ri kelsa, undan keyingi birinchi ish kuni muddatning tugagan kuni hisoblanadi".

Siz aytayotgan holatda yuqoridagilarga asosan bayramdan keyingi kun oxirgi ish kuni deb hisoblanadi.

JAZO ISHGA KIRISHGA TO'SQINLIK QILMAYDIMI?

– Ozodlikni cheklash jazosini o'tab bo'lgan shaxs kelajakda ichki ishlar organlariga ishga qabul qilinishi mumkinmi?

– O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonuni-ni 26-moddasiga ko'ra, "Belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan, xizmatni o'tashga to'sqinlik qiladigan kasalligi yoki jismoniy nuqsonlari bo'lgan, boshqa davlat organlaridan salbiy sabablarga ko'ra bo'shatilgan fuqarolar, shuningdek sodir etgan jinoyati uchun qo'llanilgan jazo turidan, sudlanganlik holati tugallanganligidan yoki olib tashlanganligidan va amnistiya akti qo'llanilganligidan qat'iy nazar muqaddam sudlangan fuqarolar ichki ishlar organlariga xizmatga qabul qilinishi mumkin emas".

Shunga asosan shaxs sudlangan bo'lsa yoki sudlanganligi olib tashlangan bo'lsa ham, ichki ishlar organlariga ishga qabul qilinmaydi.

QACHONGACHA ALIMENT TO'LAYMAN?

– Men otalikdan voz kechganman. Lekin aliment to'layman. Yaqinda sobiq turmush o'rtog'im turmush qurdi. Uning turmush o'rtog'i bolamga otalik qilyapti. Shunda men qachongacha aliment to'layman?

– Oila kodeksining 147-moddasiga ko'ra, sud tartibida undiriladigan aliment to'lash tugatiladigan holatlar belgilangan.

Jumladan, bola voyaga yetgan-da yoki voyaga yetmasdan turib to'la muomala layoqatiga ega bo'lganda, foydasiga aliment undirilayotgan bola farzandlikka olinganda, sud aliment oluvchining mehnatga layoqati tiklangan yoki uni yordamga muhtoj bo'lmay qolgan deb topganda, mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj aliment oluvchi sobiq er yoki xotin yangi nikohga kirganda, aliment oluvchi yoki aliment to'lashi shart bo'lgan shaxs vafot etganda aliment to'lash majburiyati tugatiladi.

Shunga asosan siz alimentni tugatish uchun sudga da'vo arizasi bilan murojaat qilishingiz mumkin.

IMTIYOZ BORMI?

– Orden yoki medal olgan shaxslarga yer solig'i bo'yicha imtiyozlar berilganmi?

– Soliq kodeksining 436-moddasiga ko'ra, "Soliqdan quyidagilar ozod qilinadi:

– "O'zbekiston Qahramoni", Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan fuqarolar yer solig'idani ozod qilinadi. Mazkur imtiyoz "O'zbekiston Qahramoni" unvoni berilganligi to'g'risidagi guvohnoma, Sovet Ittifoqi Qahramoni va Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo'limining ma'lumotnomasi asosida beriladi".

Yer mazkur moddada ko'rsatilgan shaxslarga tegishli bo'lsa, yer solig'idani ozod qilinadi.

Ushbu moddada ko'rsatilgan soliq imtiyozlariga ega bo'lgan shaxslar soliq imtiyozlarini olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarini yer uchastkasi joylashgan yerdagi soliq organlariga mustaqil ravishda taqdim etadi.

PUL MUKOFOTI BERILMAYDIMI?

– Yaqinda tashkilotimizning 30 yillik yubiley bayrami bo'ldi. Shu munosabat bilan ishchilarga pul mukofotlari berildi. Lekin menga hayfsan jazosi berilganligi uchun yubiley uchun beriladigan pul mukofoti berilmasligini aytishdi. Shunday qilinshi qonun to'g'rimi? Yubiley sanasida beriladigan pul ham rag'batlantirishga kiradimi?

– Mehnat kodeksining 299-moddasi beshinchi qismiga ko'ra, "Intizomiy jazoning amal qilish muddati ichida xodimga nisbatan rag'batlantirish choralari, shu jumladan mehnatga haq to'lash tizimiga kirmaydigan va mehnat natijalariga asoslanmagan mukofotlar ham (bayramlar, shu jumladan kasb bayramlari, yubiley munosabati bilan va hokazolar) qo'llanilmaydi".

Shu moddaga asosan intizomiy jazo qo'llanilgan xodimga rag'batlantirish pullari bilan birga yubiley uchun beriladigan pullar ham berilmaydi.

☐ Mehnat kodeksining 255-moddasiga ko'ra, xodim vafot etgan kunga qadar olinmagan ish haqini berish tartibi belgilangan. Unga ko'ra, xodim vafot etgan kunga qadar olinmagan ish haqi uning oila a'zolariga yoki xodim vafot etgan kunda marhumning qaramog'ida bo'lgan shaxs-ga beriladi. Ish haqini to'lash ish beruvchiga tegishli ariza, xodimning vafot etganligi to'g'risidagi guvohnomaning ko'chirma nusxasi berilgan hamda uning asl nusxasi taqdim etilgan kundan e'tiboran yetti kundan kechiktirmay amalga oshiriladi.

VAFOT ETGAN SHAXSNING ISH HAQINI OLIISHGA KIM KO'PROQ HAQLI?



Mehnat kodeksida kimlar ish haqi olishning ustuvor huquqiga ega ekanligi haqida izoh yo'q. Misol uchun, vafot etgan shaxsning xotini yoki marhumning ota-onasidan biri uning ish haqini olishi bo'yicha izoh berilmagan. Shuning uchun xodimga tegishli bo'lgan ish haqini ish beruvchiga birinchi bo'lib murojaat qilgan va kerakli hujjatlarni taqdim qilgan oila a'zosi yoki qaramog'ida shaxsga berish mumkin deb hisoblaymiz.

Agar ko'rib chiqilayotgan vaziyatda vafot etgan shaxsning xotini birinchi bo'lib pul uchun murojaat qilgan va kerakli hujjatlarni taqdim etgan bo'lsa, xavotirga o'rin yo'q. Siz ish beruvchi sifatida unga vafot etgan erining ish haqini berib, qonunni buzmadigiz.

To'lovlarni olishga haqli ekanligini talab qiladigan qolgan qarindoshlarga esa vafot etgan xodimning ish haqi uning xotiniga berilganligi to'g'risida ma'lumotnoma taqdim etishingiz mumkin.

Marhumning ish haqini olish uchun qarindoshi ish beruvchiga quyidagilarni taqdim qiladi:

- ☐ erkin shaklda yozilgan yozma ariza: "Masalan: Men, Farmonova Nigora Azizovna, marhum Farmonov Davron Kamilovichning xotini, vafot etgan kunga qadar olinmagan ish haqini va unga to'lanadigan boshqa to'lovlarni berishingizni so'rayman";
- ☐ vafot etganligi to'g'risidagi guvohnomaning asl nusxasi (ish beruvchiga ko'rsatilganidan keyin qarindoshida qoladi) va vafot etganligi to'g'risidagi guvohnomaning ko'chirma nusxasi (ish beruvchida qoladi);
- ☐ pasport yoki oluvchining shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjat;
- ☐ marhum bilan qarindoshlik yoki uning qaramog'ida bo'lganligi faktini tasdiqlovchi hujjat (tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma, nikoh to'g'risidagi guvohnoma va boshqalar).

Ish beruvchi vafot etgan xodimning ish haqini qarindoshiga tegishli ariza berilgan kundan e'tiboran yetti kalendar kundan kechiktirmay berishi kerak. Vafot etgan xodimning ish haqi uning oila a'zosi-ga naqd pulda yoki plastik kartaga o'tkazish yo'li bilan berilishi mumkin. Ish haqi berilganligi to'g'risidagi arizada qarindosh bu borada aniqlik kiritishi va pul mablag'larini aynan qaysi kartaga yuborish kerakligini, o'tkazish uchun zarur bo'lgan barcha tafsilotlarni ko'rsatishi kerak. Ariza beruvchining pulni olganligi dalilini qayd etgan ma'qul. Bu pulni oluvchining arizasi yoki tilxati bo'lishi mumkin.

Mehnat shartnomasi bekor qilinganda xodimga barcha foydalanilmagan har yilgi asosiy va qo'shimcha mehnat ta'tillari uchun pullik kompensatsiya to'lanadi.


Xodimning vafoti esa Mehnat kodeksining 168-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan talarfarning xohish-irodasiga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra mehnat shartnomasini bekor qilishning asoslaridan biri sanaladi. Demak, xodimning vafoti munosabati bilan mehnat munosabatlarini to'xtatayotgan ish beruvchi xodim tomonidan foydalanilmagan ta'tillar uchun ham kompensatsiya hisoblashi shart.

Oila a'zolari yoki marhumning qaramog'ida bo'lgan shaxslar bo'lmagan taqdirda, tegishli summa meros tarkibiga kiritiladi va umumiy asoslarda meros qilib olinadi.

Gulmira AKMURODOVA,
Buxoro tuman adliya bolimi
FHDIY bo'limi mudiri

☐ Keyingi vaqtda aholining axborotga bo'lgan talabini qondirishda ijtimoiy tarmoqlarning o'zni tobora ommalashib bormoqda. Bunga sabab fuqarolarning ishonchli va aniq ma'lumotlarni qabul qilishida huquqiy bilimning yetishmasligi, kishilik madaniyatiga xos xislatlardan uzoq ekani tobora avj olib bormoqda. Jumladan, insonlarning o'zaro muloqotlarida ishlatiladigan so'zlarni ijtimoiy tarmoqqa olib chiqish, shaxslar muloqotida undan foydalanish orqali insonlarning huquqlari buzilishiga olib kelmoqda.

JAMIYATDA YURISH-TURISH QOIDASINI MENSIMASLIK...



Huquqiy jamiyatda bu kabi nodatiy voqelik fuqarolar tomonidan noto'g'ri talqin qilinishi va jamiyatda yurish-turish qoidalariga hamda sog'lom axloqiy muhitga salbiy ta'sir qilishi holatlarining oldini olish bugungi davr uchun zarur bo'lib bormoqda.

Albatta, insonlarning axborot olish, tarqatish, iste'mol qilish huquqini inobatga olish muhim. Lekin bu huquqlardan foydalanish jamiyat va insonlarning huquqlarini mensimaslik ma'nosini anglatmaydi.

“
Konstitutsiyaning
26-moddasida
ta'kidlanganidek, insonning
sha'ni va qadr-qiymati
daxlsizdir, hech narsa ularni
kamsitish uchun asos bo'lishi
mumkin emas.

Davlat fuqarolarning ayrim axloq normalarini nazorat qila olmaydi. Bu axloq normalarini jamiyatning shakllangan madaniyati va fuqarolargina tartibga olishi mumkin. Jamiyatda insonlar o'zlarini o'z shaxsiy hayoti va qarashlariga ko'ra shakllantirib boradi.

Shunday bo'lsa-da, axloqiy munosabatlarning ham chegarasi mavjud. Ular jamiyatdagi barqaror ijtimoiy muhitni ta'minlash uchun zarur hisoblanadi.

Ko'cha-ko'yda, jamoat joylarida behayo, axloqqa zid harakatlarni sodir etish sud tomonidan fuqarolarning osoyishtaligini buzuvchi xatti-harakatlarda ifodalangan jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik deb baholanadi. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 183-moddasi mazmuniga ko'ra, mayda bezorilik, ya'ni jamoat joylarida uyatli so'zlar bilan so'kinish, fuqarolarga haqoratomuz shilqimlik qilish hamda jamoat tartibini va fuqarolarning osoyishtaligini buzuvchi shu kabi boshqa xatti-harakatlarda ifodalangan jamiyatda yurish-turish qoidalarini mensimaslik bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi.



Jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik deganda, normativ-huquqiy hujjatlar, odob va axloq normalari, urf-odat, an'analar bilan belgilangan jamoat tartibini (odamlararo munosabatlar, yurish-turish qoidalarini, shakllangan ijtimoiy turmush tarzini) qo'pol tarzda buzish tushuniladi. Bu kabi holatlarning asl ildizi, avvalo, ishsizlik, qonunning ta'sir qilish mexanizmi kuchli emasligi, ichkilik va giyohvandlik, yashash uchun maqsadning aniq emasligi, psixologik qarashidagi o'zgarishlar va boshqa tarzdagi jamiyatda yo'l qo'yilayotgan ba'zi bir e'tiborsizliklarga borib taqaladi.

Najmiddin ESHMURZAYEV,
Sariosiyo tuman adliya bo'limi
yuridik xizmat ko'rsatish markazi
bosh yuriskonsulti

8 ADLIYA FAXRIYLARI



Hayotning o'z qonun-qoidasi, o'ziga yarasha yo'l-yo'rig'i, quvonchu tashvishlari bor. Umr mazmuni tug'ilish, yashash, o'qish, izlanish, mehnat qilish, orzu-maqсадlarga erishish, qancha-qancha dovonlardan, hayot sinovlaridan o'tish kabi mas'uliyatdan iborat. Umrini Vatanga, xalqqa xizmat qilish bilan o'tkazgan har bir inson yuksak hurmatga, e'tiborga munosibdir. Xalqimiz bunday insonlarni "Umringdan baraka top!" deb duo qiladi, hurmatini joyiga qo'yadi.

UMRIDAN BARAKA TOPGAN insonlar

ANDIJONLIK HUQUQ HIMOYACHISI



Shoiraxon O'rinboyeva ana shunday hurmatga sazovor insonlardan biri. O'z mehnat faoliyatini 1968-yilda Andijon davlat universitetida oddiy laborantlikdan boshlagan qahramonimiz qator yillar turli tashkilot va muassasalarda ishladi.

Andijon davlat tibbiyot instituti-da assistent, viloyat kasaba uyushmasi qo'mitasida metodist, viloyat ijroiya qo'mitasida katta referent, keyinchalik rais o'rinbosari yordamchisi, tashkiliy bo'lim instruktoriga lavozimlarida faoliyat olib bordi.

Adliya tizimidagi yigirma yildan ortiq mehnat faoliyati davomida Andijon viloyat adliya boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosarligigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi. Andijon shahar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo'limi mudiri sifatida ham samarali mehnat qildi.

Tajribali huquqshunos keyinchalik Andijon shahridagi "Huquq himoyachisi" advokatlik byurosi boshlig'i sifatida fuqarolarga yuridik xizmat ko'rsatdi. Huquqiy madadga muhtoj fuqarolarning manfaatlarini himoya qilishga munosib hissa qo'shdi.

O'z sohasining yetuk mutaxassisi sifatida davlat va jamiyatda, ayol-ona sifatida oilada o'zining munosib o'rnini topgan Sh. O'rinboyevani qutlug' 80 yoshi bilan qutlaymiz. Har kimga ham Shoiraxon opadek mehnatlarining rohatini ko'rib, el-yurt o'rtasida yuzi yorug' bo'lib yashash nasib etsin!



"O'ZIMIZNING NOTARIUS"

Aliqul Ibragimovning mehnat faoliyati Sho'rchi tuman xo'jaligida oddiy ishchilikdan boshlandi. Toshkent davlat universitetining huquqshunoslik fakultetini tamomlagach,

1979-yilda Surxondaryo viloyat

matlubot jamiyatining katta huquqshunosi sifatida yuridik sohada olgan bilimlarini hayotga tatbiq etdi. Sho'rchi tuman davlat notarial idorasi katta notariusi lavozimida 28 yil xalqqa xizmat qildi. Salkam o'n yil tumandagi 1-sonli davlat notarial idorasida notarius vazifasida siddiqildan mehnat qildi.

Hayot charxpalagi mudom aylanib turadi. Kimdir yangi mashinasini, kimdir yangi uyini rasmiylashtirish, turli hujjatlarini tasdiqlatish uchun "o'zimizning notarius" deb Aliqul akaning huzuriga shoshardi. Biror huquqiy maslahat kerak bo'lganda ham A. Ibragimovga murojaat qilishardi. Qahramonimiz har qanday maslahatga, xizmatga bajonidil vaqt topardi. Bugun ham o'zi tug'ilib o'sgan Sho'rchi tumanidagi fuqarolarga, mahalladoshlariga huquqiy yordam va maslahat berish Aliqul aka uchun hayot mazmuniga aylangan.

HAYOTINING MAZMUNI YAXSHILIK

O'n yetti yoshida Urganch shahar sudining sud majlisi kotibi bo'lib ish boshlagan Halima Madrahimovaning huquqshunos bo'lish orzusi 1979-yilda - Toshkent davlat universitetining huquqshunoslik fakultetini tamomlagach ushaldi. Qator yillar Xorazm viloyat adliya boshqarmasida, viloyat advokatlari hay'atida, Urganch shahar sudida faoliyat yuritdi. Qayerda, qaysi lavozimda bo'lmasin, o'z kasbini sevib, o'z ishini siddiqildan bajardi.

1985-yildan boshlab Xonqa tuman davlat notarial idorasining notariusi lavozimida ishlagan Halima opa notariat tizimida samarali xizmat qildi. Urganch shahar 1, 2, 3-sonli davlat notarial idoralarida notariuslik qildi. Mehnat faoliyatining ko'p qismi notariat tizimida o'tdi. Ishlagan davrida xizmat vazifasidan tashqari, mamlakatimizda olib borilayotgan huquqiy islohotlarning, qabul qilinayotgan qonunlarning mazmun-mohiyatini fuqarolarga tushuntirishga, aholi o'rtasida huquqiy targ'ibotni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratdi. Bugun ham faxriy huquqshunosdan huquqiy maslahat so'rovchilar, savollariga aniq javob oluvchilar juda ko'p. Halima opa mahalladoshlaridan to'g'ri maslahatini ayamaydi. Hamisha ular bilan birga, hamnafas. Chunki hayotning mazmunini boshqalarga xizmat va yaxshilik qilishda deb hisoblaydi.

Sud, adliya, notariat sohalarida uzoq yillar halol mehnat qilib, obro'-e'tibor topgan, bir so'zli ayolning oilada ham baxti bekor. Farzandlar va nabiralari kamolini ko'rish baxtiga sazovor bo'lgan, yaqinlarining, do'stlarning, shogirdlarning mehri va e'tiboriga loyiq bo'lgan Halima Madyarovnaga qutlug' yoshingiz muborak bo'lsin deymiz!

Umridan baraka topgan shunday qadrlil insonlar bor bo'lsin!

Marusa HOSILOVA,
"Inson va qonun" muxbiri



Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrdagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'rnak ko'rsatgan xodimlarini moddiy rag'batlantirish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori qabul qilingan bo'lib, ushbu qaror bilan "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'rnak ko'rsatgan xodimlarini rag'batlantirish direktor jamg'armasini tashkil etish va uning mablag'laridan foydalanish tartibi to'g'risida"gi reja tasdiqlangan.

DIREKTOR JAMG'ARMASIDAN MODDIY YORDAM KIMLARGA BERILADI?

Direktor jamg'armasi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligi va sifatini oshirishni rag'batlantirish, pedagog, psixolog va kutubxona xodimlariga oylik ustama belgilash, umumta'lim muassasalarida xodimlarini mukofotlash va ularga moddiy yordam berish, pedagog xodimlarning kasb mahorati va malakasini oshirishni rag'batlantirishni kuchaytirish maqsadida tashkil etilgan.

Pedagog, psixolog va kutubxona xodimlarining bazaviy tarif stavkasiga har oylik ustama belgilash, umumta'lim muassasalarida xodimlarini mukofotlash va ularga moddiy yordam berish umumta'lim muassasalarida tashkil etiladigan ustamalar belgilash, moddiy rag'batlantirish va moddiy yordam berish bo'yicha ishchi guruhlar tomonidan amalga oshiriladi.

Direktor jamg'armasi hisobidan umumiy o'rta ta'lim muassasalarining pedagog, psixolog va kutubxona xodimlariga bazaviy tarif stavkasiga har oylik ustama belgilash, umumiy o'rta ta'lim muassasalarining xodimlarini mukofotlash va ularga moddiy yordam berish haqida ishchi guruhning qarori asosida umumiy o'rta ta'lim muassasasi direktorining buyrug'i chiqariladi.

Umumta'lim muassasalarida xodimlariga moddiy yordam kalendar yil davomida ikki lavozim maoshi (o'qituvchining tarif stavkasi) miqdorigacha xodimning o'zi va yaqin qarindoshi (otasi, onasi, turmush o'rtog'i, farzandi):

- vafot etganda;
- og'ir kasallikka chalinganda;
- xodim tabiiy ofatdan zarar ko'rganda ko'rsatiladi.

Amaliyotda ishchi guruh a'zolari tomonidan pedagog xodimlarning o'zi yoki yaqin qarindoshi og'ir kasallikka chalingani munosabati bilan moddiy yordam olish haqidagi murojaatlarini ko'rib chiqishda ayrim stavkalarga e'tibor bermasdan, ya'ni xodimlarning yaqin qarindoshlik darajasiga uning akasi, opasi, ukasi, singlisi kirmasligi yoki kasallik darajasiga, yengil yoki o'rta darajadagi kasalligi uchun moddiy yordam berish holatlari uchramoqda.

Xulosa qiladigan bo'lsak, umumiy o'rta ta'lim muassasalarining xodimlari va ishchi guruh a'zolarining yuqorida aytib o'tilgan qoidalariga amal qilmasligi qonunchilikda belgilangan javobgarlik kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Salamat BAZARBAYEV,

Kegeyli tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti

**INSON
va qonun**

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI

"Adolat" milliy huquqiy axborot
markazi nashri

info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda
O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0081-raqam bilan
ro'yxatga olingan

ISSN 2020-7957



9 792020 795700

**Bosh
muharir**

Asliddin
ALIMARDON

TAHRIR HAY'ATI

Alisher Karimov
Furqat Tojiyev
Akbar Musayev
Xayotjon Klichev
Sevara O'rinboyeva
Yorbek Iskandarov
Dilfuza Ergasheva

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqir
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

Navbatchi
Marusa Hosilova

Sahifalovchi-dizayner
Jasur Tojiyboev

Nashr indeksi: 137

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch" ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter bazasida terildi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma taboq hajmda, ofset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 17-mavze, Yangi shahar ko'chasi, 14-uy

Tiraj - 4088
Buyurtma - 204

Topshirish vaqti - 19:00
Topshirildi - 19:00

MANZILIMIZ:

100060, Toshkent sh.
Amir Temur shohko'chasi
19-uy.

Faks: (71) 233-28-18

Obuna bo'limi:

(71) 233-25-65

Bahosi kelishilgan narxda

1 2 3 4 5